

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIKA O'TISHDAGI MUHIM MASALALAR

Xolmatova Nodiraxon Quddusovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-
gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi
katta o'qituvchisi.

Emali: nodirahonholmatova74@gmail.com
Tel:(93) 427-26-16

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining integratsiyalashuvi fonida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishning maqsadi va ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Bunda chet el tajribasiga asoslangan holda, milliy hisob tizimimizni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etishning ijobiy jihatlari va afzalliklari, shuningdek, MHXSga o'tishning foydali taraflarini inobatga olib, kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, milliy hisob, integratsiyalashuv.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonida buxgalteriya tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos holda rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlar chet hamkorlar bilan aloqalar sezilarli darajada rivojlanib kengayib bormoqda va buxgalteriya hisobotining milliy standartlaridan chet el foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 fevralda “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'chimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorining

qabul qilinishi ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan hamda amalga oshirilayotgan ishlar qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib berdi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu tashqi foydalanuvchilar tomonidan korxonaga yoki tashkilotga nisbatan iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga ko'maklashish maqsadida e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalari ni o'zida jamlagan hujjatlar to'plamidir. Ma'lumotlarga ko'ra 2023 yilda MHXSni dunyoning 167 ta mamlakatida qo'llanilmoqda va bu ro'yhat kengayib bormoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari muntazam ravishda yangi talablar bilan to'ldirilib boriladi. Shuning uchun barcha qarorlarni o'z vaqtida qabul qilib va iloji boricha tezroq o'z kompaniya, firma va korxonalarimizni rivojlantirib borishimiz kerak. Bunday katta vazifa va majburiyatlarni faqat tajribali mutaxassisgina bajara oladi. Bu talablarni muntazam ravishda o'r ganishdan tashqari, O'zbekistonda mavjud qonun qoidalarga loyihalarga rioya qilish ham juda muhimdir. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va buxgalteriya hisobotini yuritish barcha talablarga javob berishi kerak. O'zbekistondagi MHXS standartlari chet ellik biznes egalariga aniq moliyaviy natijalar berishni istagan rahbarlar uchun juda muhimdir. MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot kompaniyaning ishonchliligi va barcha qonuniy talablarga qat'iy rioya qilgan holda halol shaffof biznes yuritilishini tasdiqlaydi.

MHXSga muvofiqlikning asosiy mezonlari quyidagilar:

1. Asosiy vositalarni hisobga olish;
2. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq daromad solig'ini hisoblash;
3. Korxonaning oraliq moliyaviy hisobotini shakllantirish;
4. Pul mablag'larning oqimi;
5. Investitsion mulklar.

O'zbekistonda MHXS ni amalda qo'llashning eng jiddiy muammolaridan biri xalqaro talablarning mahalliy tilga aniq tarjima qilinishidir. Jarayon qo'shimcha tushuntirishlar va anqliklar kiritish bilan kechadi. Bu tuzatishlar ko'p va mehnat resurslarini talab qiladi, bu esa kechikish xavfi va qo'shimcha xarajatlar mavjudligini

anglatadi. Hisob-kitoblarning har biri iqtisodiy tarkibga ega, shu bilan birga u qo'shimcha huquqiy yordamni talab qilishi mumkin. MHXS O'zbekistondagi an'anaviy buxgalteriya hisoboti qoidalardan farqi shundaki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi. Bu jarayonda sobiq ittifoqning buxgalteriya uslublaridan voz kechildi va moliyaviy hisobotlar jahonda qabul qilingan tamoyillarga o'ta boshladi. Jumladan, qonun bilan quvvatlangan turli milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqildi, buxgalterlar uyushmalari qoshida xalqaro buxgalteriya amaliyotlarini o'rgatish va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari shakllandi. O'zbekistonda yuritilgan qonunchilik, ta'lim va malaka oshirish amaliyotlarining yakuni MHXS bilan to'la uyg'unlashuvga olib kelishi kutilgan edi. Biroq MHXSga o'tish jarayoni cho'zilib ketdi. Davlatning milliy iqtisoddagi o'rni mulkdorlar sinfiga nisbatan kattaroq bo'lgan sharoitda moliyaviy axborotdan foydalanuvchi taraf hukumat tashkilotlari, ayniqsa soliqqa tortish organlari bo'lib qoladi. Natijada buxgalterlik hisoboti tizimlari soliq hisobotlarini shakllantirishga qaratiladi va tashqi investor va ichki mulkdorlarning axborotga bo'lgan manfaatlari keyingi darajaga tushib ketadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'yndi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniadi:
ko'pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish; hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatalishi (sanoati rifojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda endi rivojlanib borayotgan bozorlar uchun, masalan, Xitoy, Osiyoning boshqa mamlakatlari ham shular jumlasidandir) ; Fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda tuzilishini talab qilgan hollarda; Kapital bozorlari uchun standartlar ishlab chiqishda to'lig'icha Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslanishga qaror qilgan Yevropa Komissiyasi kabi milliy organlar tomonidan ishlatsihi;

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talab qilinmaydigan mamlakatlarda ham kompaniyalar

soni ortganligi tufayli foydalanilishi.

Yuqoridagilar tufayli

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. Hatto ba'zi mamlakatlar Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar (MHXS) ni o'z standartlaridek o'zgarishlarsiz ishlatalishmoqda, ba'zilari esa mamlakat xususiyatidan kelib chiqib ba'zi o'zgarishlarni kiritmoqdalar. Ko'p millatli yirik kompaniyalar esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish ular uchun qulayligini ta'kidlashmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining tan olinishi va tobora ko'proq ishlatalishini isbotlovchi eng muhim voqealardan biri bu qimmatbaho qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyalarning Xalqaro Tashkiloti tomonidan xorijiy kotirovkalar uchun Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining asos qilib olinishidir. MHXS lar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar mamlakatda investitsion muhitni yaxshilaydi. Mamlakat iqtisodiyotiga yirik kompaniyalar tomonidan investitsiyalarning kirib kelishiga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida MHXS dan foydalanishning zarurligini quyidagi omillar bilan belgilashimiz mumkun:

- turli mamlakatlarda investorlar va aksionerlar potensial kompaniyalarning bir xil tamoyillar, ya'ni taqqoslanuvchanlik asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni yaxshiroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- turli mamlakatlarda turli fond birjalariga ularning har biriga o'sha mamlakatning standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotdan ko'ra hammasi uchun yagona tan olinadigan bitta moliyaviy hisobotni tuzish maqsadga muvofiqdir.

Natijada hisobotni tuzish harajatlari ham qisqaradi va kapitalni jalb qilish imkoniyatlari ham kengayadi. MHXS larning turli xil milliy hisob tizimiga ega bo'lган mamlakatlarda qo'llanilishi ko'zda tutilganligi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. Xozirgi kunda xalqaro standartlar tarkibi bo'yicha uch qismidan iborat. Birinchi qism-kirish, ikkinchi qism -hisob obyektining tavsifi, uchinchi qism-buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi. MHXS talablariga mos keladigan moliyaviy hisobot taqdim etishda nafaqat mos keluvchi

standartga murojaat qilish, balki MHXSda ularga havola bo'lgan boshqa MHXS talablariga ham alohida e'tibor qaratish hamda jamiyatning moliyaviy hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishga nisbatan ularni qo'llash choralarini ham hisobga olish zarur.

Xulosa.

Hozirgi integratsiyalashuv va globallashuv davrida raqamli iqtisodiyot rivojlangan davrda imkon qadar iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun unumli foydalanishimiz zarur. Ya'ni, har bir mamlakat o'z milliy standartlaridan foydalanishi va buning natijasida xorijiy mamlakat investorlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va hisobotlarni tarjima qilishda yo'qotiladigan vaqt va sarf xarajatlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim bir to'siq bo'lmasligi kerak. Bu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda yurtimizda MHXS dan foydalanishni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Yurtimizda ushbu soxada malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimimizni rivojlantirish va yanada kuchaytirishimiz lozim, sababi aynan bu kadrlar iqtisodiyotimizni rivojlantirib chet eldan kirib kelgan investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi va mamlakatimiz ravnaqi uchun ulkan hissasini qo'shadilar.

Xulosa qilib aytganda barcha uchun tushunarli bo'lgan hisobot standartlaridan foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu orqali biz xalqaro miqyosda o'z reyting pog'onamizni yanada yuqoriga ko'tarishimiz, hisobotdan foydalanuvchilar ko'lамини kengaytirishimiz hamda ushbu hisobotlar shaffofligini oshirishga va ta'minlashga erishishimiz mumkin hamda xalqaro globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatimiz yuqorilab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldaggi PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori.
- 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022 y.
- Ismanov I., Toshmamatov N., Buzrukhanov S. “Moliyaviy hisob va hisobot” Darslik – T 2019 y.
- D.Xolboyev, U.N. Ibragimov. “Moliyaviy hisob” o'quv qo'llanma
 - <https://www.ijfd.uz>
 - <https://cedr.tsue.uz>
 - <https://cyberleninka.ru>
 - <https://uz.f-chain.com>